

BADIIY MATN ATAMASINI POETIK AKTUALLASHTIRUVCHI
VOSITALAR.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7636312>



ELSEVIER



Sobirova R. X

Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasini dotsent v.b . +998 99 325 95 54 sobirovaranohon@gmail.com



Abstract: Tilshunoslikning yangi yo'nalishi lingvopoetika o'zining tadqiqot predmeti doirasiga olgan badiiy mantda tilning turli birliklardan, xoh u fonetik leksik-grammatik, , xoh sintaktik birliklarning ko'rinishi bo'lsin , muallif yoki yozuvchi biron bir stilistik maqsadni ko'zlagan holda undan to'g'ri va unumli foydalanishga harakat qiladi va o'ziga xos, betakror uslubni yaratadi. Demak, til birliklari, ayniqsa sintaktik birliklardan to'g'ri va unumli foydalanish yozuvchining uslubiy qirrasini namoyon etadi. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi lingvopoetika aynan mana shunday badiiy matn nazmiy yoki adabiy janrlar matnini shakllantirishda ishtirok etuvchi, ya'ni poetik aktuallashtiruvchi vositalarni o'rganishni o'zining tadqiqot predmeti doirasiga oladi.

Keywords: lingvopoetika, poetik aktuallashtiruv, sintaktik birlik, , fonetik birlik, leksik-grammatik birlik

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 11-02-2023

Accepted: 12-02-2023

Published: 22-02-2023



Abstract: Новое направление лингвистики, лингвопоэтика, включило в сферу своего исследования художественную текст , в которой язык состоит из различных единиц, будь то фонетические лексико-грамматические, синтаксические единицы автор или писатель, преследуя какую-то стилистическую цель, старается правильно и продуктивно использовать ее и создает неповторимый стиль. Следовательно, правильное и эффективное использование языковых единиц, особенно синтаксических единиц, демонстрирует стилистическую грань писателя. Новое направление лингвистики-лингвопоэтика именно как таковая принимает в сферу своего исследования изучение средств ,участвующих в формировании художественного текста (поэтического и литературного типа), то есть поэтических актуализаторов.

Keywords: лингвопоэтика , поэтическая актуализация, синтаксическая единица,, фонетическая единица, лексико-грамматическая единица.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 11-02-2023

Accepted: 12-02-2023

Published: 22-02-2023



Abstract: Annotation a new direction of linguistics linguopoetics in the literary text, which takes into the framework of its research subject, is the use of various units of the language , be it phonetic lexical-grammatical, or the appearance of syntactic units, in which the author or writer, pursuing some stylistic goal, tries to use it correctly and efficiently and creates a unique, the correct and efficient use of language units, especially syntactic units, shows the stylistic edge of the writer. A new direction in linguistics linguopoetics takes into account the study of those tools that are involved in the formation of just such as poetic and literary texts, that is, poetic actualization, within the framework of its subject of research

Keywords: linguopoetics, poetic actualization ,syntactic unit,, phonetic unit, lexical-grammatical unit

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 11-02-2023

Accepted: 12-02-2023

Published: 22-02-2023

Kirish

Tilning hozirgi taraqqiyoti uning sintaktik qurilishidagi uslubiy jihatlarini har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Chunki so'zlovchi yoki yozuvchi biror fikrni ro'yobga chiqarishda turli sintaktik birliklardan maqsadga muvofiq'ini

tanlab ishlatadi. Shu vositasida aytilayotgan fikrni ta'sirchan va ma'noli bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun sintaktik uslubiy vositalar: sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya, she'riy sintaksisdagi uslubiy potentsiyalarga murojaat qiladi. Nutq uslublariga xos turli sintaktik vositalar, so'z birikmalari va gaplardagi sinonimiya, polisemiya, omonimiya hodisasi, so'z tarkibi ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra gap turlarining nutqda ishlatilishi, ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari va boshqalar hozirgi kun tishunosligida kommunikativ tilshunoslik hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari o'rtasida yuzaga kelgan yangi yo'nalish – lingvopoetikaning o'rganish ob'ektidir. Va ayni damda, poetik figuralarni lingvistik jihatdan tahlil qilish sintaktik uslubiyatning ham tadqiqot predmeti sanaladi. Bunda u istalgan sintaktik birliklarni yakka, ajratib sintaktik birliklar bilan aloqaga kirgan joyini, ya'ni nutqdagi sintagmatik va tildagi paradigmatic aloqalarni hisobga olgan holda ish tutadi. Demak, bu jarayonda har bir sintaktik birlikdagi qo'shimcha ma'nolar ochiladi va bu ma'nolarning bayon qilinayotgan nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganish nazarda tutiladi.

Asosiy qism

So'zlar sintaktik aloqaga kirishgandagina biror ma'no qirrasini ro'yobga chiqadi. Xuddi ana shu o'rinda biz biror so'zning o'zaro birikishi yoki birika olmasligini sezamiz. Demak, so'zlardagi ma'no va grammatik xususiyatlarni to'g'ri aniqlab, nutqda ular o'rinli biriktirilsa, uslubiy nuqsonsiz, ixcham va tushunarli fikr ro'yobga chiqadi. Aks holda, nutq sayoz va mantiqsiz bo'ladi. Masalan, og'ir, mushkul, qiyin sinonim so'zlari masala oti bilan birikib, og'ir masala kabi aniq bog'lamalarni hosil qilgani holda, jomadon oti bilan faqat og'ir so'zi birika oladi: og'ir jomadon.

Ko'rinadiki, har bir so'zning o'z leksik-grammatik tabiatiga asoslangan bog'lanish xususiyatlari bor: sifat+ot: katta bino (predmet va uning belgisi); ot-fe'l: ishga kirdi (predmet va uning harakati); ravish +fe'l: yayov yurdi (harakat va uning belgisi) kabi. Son bilan sifat birikmaydi. Chunki ikkalasi ham predmet belgisini bildiradi. Shuningdek, o'timli fe'l predmetning doimo tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi va hokazo.

So'z birikmasi va sodda gaplardagi valentlikda (birikish) kamida ikki so'z aloqaga kirishadi.

Sintaktik konstruktsiyalarning uslubiy bo'yog'i shu konstruktsiyalarda ifodalangan so'zlar, shaxs-son, kelishik, modallik va so'z tartibi kabi grammatik ma'nolar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Bu uslubiy bo'yoq uch a'zoli paradigmada yorqin namoyon bo'ladi: betaraf, kitobiy so'zlashuv. Masalan: U xafa edi (betaraf); U hazin edi., (ta'sirchan bo'yoqli –kitobiy; g'amgin edi u (ta'sirchan bo'yoqli – so'zlashuv).

Qayd etilgan dalillar sintaktik birliklarning o'ziga xos katta uslubiy imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi va hokazo.

Badiiy matnning sintaktik xususiyatlarini o'rganish tilning estetik vazifasi, ya'ni uni nimaga, qanday maqsadda, qay tarzda qaratilganligini aniqlash bilan chambar-chas bog'liq.

Ma'lumki, har qanday nutq birligining effektiv vazifasi nutq muallifi - adresant va qabul qilib oluvchi-adresant o'rtasidagi uzviy aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Nutq birligi orqali ifodalangan fikrga bo'lgan munosabatning reallashuvi natijasida tilning ta'sir etish, uyg'otish, ya'ni estetik vazifasi kuzatiladi. Til vositalari nutq jarayonida biror uslubiy maqsadda qo'llangandagina, stilistik vositaga aylanadi. Bu holat badiiy matnning ekspressivligini ta'minlaydi va ta'sir kuchini oshiradi.

Matnni yanada yorqinroq, ta'sirliroq, ravonroq qiladigan vositalarning hammasi ekspressiyadir [1]. Ekspressiya kitobxonda yoki tinglovchida berilgan fikrdan kifoyalanish yoki ta'sirlanish, zavqlanish yoki hayajonlanish, qayg'urish yoki xursand bo'lish kabi emotsional holatlarning paydo bo'lishi bilan ko'zga tashlanib turadi.

A.A.Potebnya ta'kidlaganidek, til inson faoliyatining bir qirrasini bo'lmish she'riyat va yoki san'at bilan chambarchas bog'liq holda reallashgandagina inson ichki dunyosini aniq-ravshan ifoda etadi.

Tilning estetik vazifasini o'rganish hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan eng dolzarb muammoni hal etish bilan barobar desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot tili ham kommunikativ, ham estetik vazifani bajaradi. Badiiy nutqning estetik vazifani bajarishini shu nutqning o'ziga xos muhim belgisi deb hisoblash mumkin. Badiiy matndagi ta'sirchanlik yuqori darajasi, ko'lamdorligi bilan xarakterlanadi. Su xususiyatlarga ko'ra D.E.Rozental estetik vazifani bajarishni to'liq badiiy matnga xos deydi. Darhaqiqat, badiiy matnning obrazlilik ko'lami, ifoda vositalariga boyligi, badiiy so'zlarning emotsional bo'yoqdorligi - barchasi shu nutqning asosiy vazifasi bo'lgan ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi vositalar hisoblanadi.

Badiiy uslub adabiy tilning shakllanishi uchun muhim rol o'ynaydi. U adabiy tilning asosini tashkil qiladi. Badiiy matndagi uslub boshqa uslub turlaridan keng qamrovliligi, turli ifoda vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. Chunki, badiiy matn shu nutq uchun xos bo'lgan vositalardan tashqari, barcha nutq turlari uchun xos bo'lgan vositalarni ham qamrab oladi. Bu holat badiiy matnning nutqiy imkoniyati kengligi, serqirraligi, uslubiy bo'yoqlarga boyligi natijasidir.

Badiiy matnda fikrni ta'sirli ifodalash imkoniyatlari cheksiz. Bu imkoniyatlar inson tafakkurining taraqqiyot darajasi bilan bog'liq holda hamisha rivojlanib

boradi. Inson nutqi orqali ob'ektiv olam aksini betaraf kishi sifatida tasvirlashi yoki ana shu haqiqatga o'zining shaxsiy munosabatini ham qo'shib ifodalanadi. So'zlovchining ob'ektiv voqelikka bo'lgan bunday munosabati tilda turli ekspressiv-emotsional xususiyatlarga ega bo'lgan uslubiy vositalar yordamida reallashib, badiiy asar tilini his qilish, mazmunan yengil, oson tushunishda, undan estetik ta'sirida, oziqlanishda poetik figuralarningo`rni beqiyos. "Poetik figuralar - uslubiy vositalar "nutqning fonik-metrik, ritmik-melodik, morfologik-sintaktik, semantik-stilistik, kompozitsion-dinamik qurilishini ta'minlovchi tarixiy-estetik kategoriyadir".

Badiiy matn tilida takrorning vazifasi muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni aniqlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iboratdir. Badiiy matn ta'sirchanligini oshirishda eng mahsuldor va effektli takror tipi - bu sintaktik takror usulidir. Tilshunos olimlar Yo.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo'ldoshevlarning fikricha, takror ikki xil bo'lib, grammatik takror (yig'lab-yig'lab ketib qoldi; qop-qop un tushirdi kabilar) odatda ko'plikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Badiiy takror esa tilnig badiiy tasvir vositasi hisoblanadi va asosan kuchaytirish, ta'kid ma'nosini oshiradi[2]. Yo.Tojiev o'zining "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari" nomli qo'llanmasida [3]. takrorning ham turli ko'rinshlari: so'z boshidagi tovushlarning takrorlanishi; gap oxiridagi (misra oxiridagi) so'z yoki so'z birikmasi takrori mavjudligini qayd etadi va fikrining isboti sifatida H.Olimjonning quyidagi misralarini keltiradi:

Ko'klam quyoshidan

Ko'kargan qirlar

Po'lat yag'rinlarni

Ko'targan yerlar ko'm-ko'k.

Erkin Vohidov o'zining mashhur "Azganush" (Arman qiziga) she'rida takrorning o'ziga xos bir ko'rinishidan juda o'rinli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Bunda har bir baytning oxirida Azganush, hoy, Azganushim, Azganushjon, Azganush so'zlari takrorlanib keladi. She'rni kuzatsangiz, har bir bayt oxirida bu so'zlarning o'rni almashtirilgan holda takrorlanadi: egalik (Azganushim), erkalash (Azganushjon) qo'shimchalarini olgan so'zlar ham o'rni almashtirilgan holda qo'llanadi. Shuningdek, hoy undov so'zining qo'llanish o'rni ham o'zgartirilgan holda takrorlanadi: Azganushim, Azganushjon, Azganush, hoy, Azganush kabi. Bu narsa she'rning o'ynoqiliginigina ta'minlab qolmasdan, murojaatning turlicha ko'rinishini ham ifodalagan, ta'sirchanligini oshirgan. Ya'ni bir o'rinda shoir Azganush deb murojaat qilsa, ikkinchi o'rinda uni tamomila o'ziga yaqin olib Azganushim deb murojaat qiladi. Uchinchi holatda esa, Azganushjon

deb murojaat qilyaapti. Ko'rinadiki, erkalash-suyish, hazil-mutoyiba kabilarning hammasi ana shunday takror orqali qiyomiga yetkaziladi.

Takrorning Gapir!; Gapir deyman!, Gapirsangchi! Gapirasanni?! Hoy, gapir!; Yo'q, Yo'q, Yo'q deyapman-ku! Tarzidagi ko'rinishlari ham bor bo'lib, ular nasriy va dramatik asarlarda keng qo'llanadi va ta'kid, kuchaytirish, do'q kabi ma'nolarini ifodalab keladi.

Badiiy matn tarkibida so'z birikmalari, gap bo'laklari va gap turlarining aynan takrorlanishi natijasida sintaktik takror hodisasi yuzaga chiqadi. Sintaktik takror semantik-grammatik-stilistik kategoriya sifatida keng ma'nodagi hodisa bo'lib, u tor-yakka ma'nodagi takror hodisalarining quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

1. Gap bo'laklari takrori - bo'lakli takror.
2. So'z birikmalari takrori -birikmali takror.
3. Gap takrori - predikativ takror.

1. Bo'lakli takror. Bunda qiyoslanayotgan sintaktik qurilmaning tarkibidagi bir xil gap bo'lagi aynan takrorlanadi. Masalan:

Hayot yaxshi, kurash ham yaxshi,

Ona tuproq, quyosh ham yaxshi (Zulfiya).

2. Birikmali takror - qiyoslanayotgan konstruktsiyalar tarkibida bir xil so'z birikmasining takrorlanishi natijasida yuzaga chiqadi:

Kulayotir,

Chig'iriqlardan

Omon o'tgan

Bir yigit.

Uchayotir, mag'rur po'lat otlarda

Bir uyaga ...jon tashigan

Bir yigit. (H.Olimjon)

3. Gap takrori - qiyoslanayotgan sintaktik konstruktsiyalar tarkibidagi bir butun predikativ birliklarning bir xilda prallel qo'llanishi. Masalan:

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, hayvon undan yaxshidir. (A.Navoiy).

Sintaktik takror ob'ektiv olamda mavjud bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi fikrlarimizni tugal va keng ifoda etgani uchun ham, uning yordamida tuziladigan sintaktik qurilmalarning biron-bir komponenti tushirib qoldirilishi mumkin bo'lmaydi.

Birov muomalani biladi, birov bilmaydi, birov gapni yog'lab gapiradi, birov tikanak bog'lab gapiradi.... (A.Qahhor).

Badiiy matnda sintaktik takror hodisasining yuzaga chiqishi uchun ikki yoki undan ortiq bir tipdagi sintaktik qurilmalar parallel holatda qo'llanishi shart. Takrorlarni qo'llanish usuliga ko'ra, gorizontaal va vertikal takror sifatida ikkiga

bo'lish mumkin. Gorizontaal takror bir sodda gap doirasida qo'llansa (O'sha gap-gap), vertikal takror qo'shma gaplarda, periodik nutq shaklida, abzatlarda, superfrazali sintaktik butunliklarda, mikromatnlarda qo'llanadi.

Biz quyida (anafora, epifora, infora kabi) vertikal takror turlarini ko'rib chiqamiz.

Badiiy matnda sitnaktik-stilistik vositalar ichida ifodaliligi va ta'sirchanligi, qulayligi hamda ravonligi bilan alohida ajralib turuvchi figura anoforadir. Anaforalar qo'llanish doirasi jihatidan ko'proq poetik asarlar tilida uchrashi tufayli ular an'anaga ko'ra, ko'pincha, poetik sintaksis masalalaridan biri sifatida tahlil qilinadi. [4].

1 Bor bo'lsin hamisha. chinoru terak,

Bor bo'lsin hamisha odil, sof yurak (relyativ birikmali anafora)
(Shuhrat).

3. Agar bu do'stlik bo'lmaganda edi, mening xalqim xo'r va xor bo'lar edi. Agar bu do'stlik bo'lmaganda edi, uning Vatani xarobaga aylangan bo'lar edi (gaplar yordamidagi anafora) (H.Olimjon).

Sintaktik anaforalar murakkab qo'shma gaplarda faol ishtirok etuvchi stilistik vosita sanaladi.

So'zlar borki, bol tomar,

Kuz suviday beg'ubor,

So'zlar borki, dil yonar,

So'ng qoluvchi dog'i bor (G.Nurillaeva).

Badiiy matnda keng qo'llanuvchi, qo'llanish chastotasi jihatdan ikkinchi o'rinda turadigan takrorning yana bir turi epiforadir. Epifora takrorlangan nutq bo'lagining ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi:

Orzu bilan tirikdir odam,

Ishi bilan buyukdir odam. (bo'laklar takrori) (Shuhrat).

Kecha olgum shirin havasdan,

Agar g'urur toptalar bo'lsa,

Kecha olgum o'tli qasosdan,

Agar g'urur toptalar bo'lsa (epiforik gaplar takrori)
(M.Egamberdieva).

Badiiy matnda qo'llanuvchi takrorning yana bir turi anafora bo'lib, sintaktik takrorning kammahsul turi sanaladi va asosan, bog'lovchisiz qo'shma gap turlarida qo'llanadi:

Olamning xurshidi kundir, Odamning xurshidi – ilm (Hamza).

Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan (inforik kesim) (Maqol).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, takror sintaktik-stilistik figura sifatida badiiy matnda, uni poetik aktuallashtiruvchi vosita sifatida juda muhim o'ringa ega. Badiiy matnda fikrni ta'sirli ifodalash imkoniyatlari chegaralanmagan. Bu imkoniyatlar inson tafakkurining taraqqiyot darajasi bilan bog'liq holda hamisha rivojlanib, kengayib boradi. Inson nutqi orqali ob'ektiv olam aksini betaraf kishi sifatida tasvirlashi yoki ana shu haqiqatga o'zining shaxsiy munosabatini ham qo'shib ifodalashi mumkin. So'zlovchining ob'ektiv voqelikka bo'lgan bunday munosabati tilda turli ekspressiv-emotsional xususiyatlarga ega bo'lgan uslubiy vositalar yordamida reallashadi. Badiiy asar tilini his qilish, mazmunan yengil, oson tushunishda, uning estetik ta'siridan oziqlanishda poetik figuralarning alohida o'rni bor. Sintaktik takror va uning turlari o'zbek tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика, Изд— во АН СССР. –М., 1963, стр. 206-207.
2. Тожиев Ё., .Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошев О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Тошкент , 1994. 122-123 б.
3. Тожиев Ё.Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент,1994. 122-б.
- 4.Кожина М.Н. Стилистика русского языка. –М., 1977. –С152.

SYNTACTIC FEATURES OF A LITERARY TEXT Sabirova R. X. Andijan State Institute of Foreign Languages Department of general and comparative linguistics Associate Professor v.b. +998 99 325 95 54 sobirovaranohon@gmail.com